**“O‘zbekiston Respublikasi
Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki” AJda
egasizlantirilgan metall hisobvaraqlarni
ochish, ularga xizmat ko‘rsatish va yopish
bo‘yicha operatsiyalar o‘tkazish tartibi
to`g`risida Nizomga 4-Ilova**

"IBank" tizimida egasizlantirilgan metall hisobvaraqlarini ochish va ularga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha shartnoma

(Ommaviy oferta)

1. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu Shartnoma “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” AJning "Ibank" tizimi orqali yuridik shaxs nomiga egasizlantirilgan metal hisobvarag`ini ochish va operatsiyalarni amalga oshirish bo‘yicha tomonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

1.2. Ushbu Shartnoma ommaviy oferta hisoblanadi va Mijoz tomonidan "Ibank" tizimida aksept qilingan paytdan boshlab tuzilgan deb hisoblanadi.

2. Atamalar va ta’riflar

2.1. Ushbu Shartnomada ishlatiladigan va bosh harf bilan yozilgan atamalar, agar ushbu Shartnomada boshqacha ko‘rsatilmagan bo‘lsa, ushbu Bo‘limda belgilangan ma’nolarga ega.

Bank – O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki AJ va uning hududiy bo‘linmalari.

Mijoz — Egasizlantirilgan metall hisobvarag`i shartnomasini tuzgan hamda Bankning ABS tizimida identifikatsiyadan o‘tgan yuridik shaxs.

**Egasizlantirilgan metall hisobvarag`i shartnomasi / Shartnoma** – Mijoz va Bank o‘rtasida tuziladigan shartnoma bo‘lib, egasizlantirilgan metall hisobvarag`ini ochish, yuritish va yopish hamda hisobvaraq bo‘yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirish shartlarini tartibga soladi. Ushbu Shartnoma Mijoz tomonidan “Ibank” ilovasida ushbu ofertani aksept qilish yo‘li bilan tuziladi.

Qimmatbaho metall – hisobvaraqda aks ettirilgan alohida belgilar (quyma soni, vazni, seriya raqami, sinfi, ishlab chiqaruvchi va hokazo) bilan

tavsiflanmaydigan, grammda qayd etiladigan egasizlantirilgan shakldagi qimmatbaho metall

Bank ABS tizimi — bu Bankning avtomatlashtirilgan bank tizimi (ABS – Automated Banking System) bo‘lib, bankdagi barcha moliyaviy va operatsion jarayonlarni yagona axborot muhitida yuritish uchun mo‘ljallangan dasturiy majmua.

Ariza – belgilangan namunadagi hujjat bo‘lib, u Mijoz yoki Mijozning Ishonchli vakili tomonidan to‘ldiriladi va uning asosida Bank Hisobvaraq bo‘yicha operatsiyalarni, jumladan, Hisobvaraqni ochish, yopish, Qimmatbaho metallni sotib olish va sotish bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshiradi:

Kotirovka – Qimmatbaho metallning bir gramini Mijozdan sotib olish yoki Mijozga sotish narxi bo‘lib, u Bankning joriy kursi asosida amalga oshiriladi. Ushbu kurs har kuni Thomson Reuters (Refinitiv) va/yoki Bloomberg axborot-moliya agentliklarining qimmatbaho metallar bo‘yicha kotirovkalari asosida yangilanadi hamda operatsiya amalga oshirilayotgan sanada amal qiladi. Bankning joriy kursi to‘g‘risidagi ma’lumot Mijozga quyidagi usullar orqali yetkaziladi: Bank bo‘linmalaridagi axborot stendlariga, hamda Ibank ilovasida joylashtirish.

Qat’iy kurs – Bank tomonidan metal bozoridagi narx asosida belgilangan, Bankning yuqorida belgilangan axborot tizimlarida kundalik ravishda e’lon qilinadigan va kun davomida yangilanadigan savdo kursi. Bank tomonidan belgilangan hajmdan yuqori bo’lmagan operatsiyalar qat’iy kurs asosida amalga oshiriladi.

Bozor kursi – Qat’iy kurs uchun belgilangan hajmdan yuqori bo’lgan operatsiyalar uchun, bitim tuzilayotgan vaqtda banklararo bozorda amalda bo‘lgan qimmatbaho metallarning savdo narxlari asosida real vaqt rejimida individual bitim uchun bank tomonidan o’rnatiladigan kurs.

Hisobraqam– Bank tomonidan Mijozga egasizlantirilgan metall hisobraqamlari shartnomasi asosida ochilgan, qimmatbaho metallni individual belgilarsiz (quyma soni, proba, ishlab chiqaruvchi, seriya raqami va boshqalar ko‘rsatilmagan holda) hisobga olish hamda ushbu hisob bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish uchun mo‘ljallangan talab qilib olingunga qadar egasizlantirilgan metall hisobvarag‘i. Hisobraqam Mijoz tomonidan egasizlantirilgan metall hisobvarag‘ini ochish to‘g‘risidagi Arizada ko‘rsatilgan qimmatbaho metall turida yuritiladi.

Tomonlar – Bank va Mijoz;

Bitim – AQSh dollarida va O`zbekiston Respublikasi so`mida Qimmatbaho metallni sotib olish-sotish bo‘yicha amalga oshiriladigan hamda Hisobvaraqda aks ettiriladigan bitim.

Tariflar – Bank tomonidan hisobvaraqga xizmat ko‘rsatish uchun belgilangan to‘lovlar, jumladan, hisobvaraqni ochish va yuritish uchun Bank tomonidan undiriladigan to‘lov miqdori, shuningdek, Mijozdan hisobvaraq bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish va Egasizlantirilgan metall hisobvarag‘i shartnomasini bajarish doirasida boshqa harakatlarni amalga oshirish uchun undiriladigan to‘lov miqdori.

IBank tizimi – yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun mo‘ljallangan masofaviy bank xizmatlari tizimi bo‘lib, u veb-platforma orqali bank bo‘limiga bormasdan turib hisobvaraqlarni boshqarish, to‘lovlarni amalga oshirish hamda boshqa bank operatsiyalarini elektron identifikatsiya va elektron raqamli imzo vositalaridan foydalangan holda bajarish imkonini beradi.

3. Shartnoma maqsadi

3.1. Ushbu Shartnomaning maqsadi – "Ibank" tizimi orqali Metall hisobvarag`ida operatsiyalarni amalga oshirish tartibini belgilashdir. Hisobvaraq bo‘yicha operatsiyalar London Bullion Market Association (LBMA) va London Platinum and Palladium Market (LPPM) xalqaro standartlariga, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ-huquqiy hujjatlari, Bankda belgilangan qoidalar va tartiblar hamda ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

3.2. Ushbu Shartnoma doirasida Bank Mijozga quyidagi xizmatlarni taqdim etadi:

- Mijozga egasizlantirilgan Qimmatbaho metallni sotish va uni hisobvarag`ga kiritish;
- Mijozdan egasizlantirilgan Qimmatbaho metallni sotib olish va uni hisobvaraqdan yechish.

3.3. Ushbu shartnoma doirasida Bank quyidagilarni amalga oshirmaydi:

- Mijozning hisobvarag`iga kiritish uchun qimmatbaho metallarni jismoniy shaklda saqlashga qabul qilish;

- Hisobvaraqdan qimmatbaho metallarni o‘lchovli yoki standartlangan tangalar shaklida chiqarish;
- Mijozning hisobvarag`idan qimmatbaho metallarni boshqa hisobvarag`ga o`tkazish.

3.4. Bank Hisobda qayd etilgan qimmatbaho metallar LBMA va LPPM "Good Delivery" standartlariga muvofiqligini kafolatlaydi.

4. Hisobvaraq bo'yicha bitimlarning shartlari va tartibi

4.1. Ushbu Shartnomaga muvofiq, Mijoz "Ibank" tizimining tegishli bo‘limida hisobvaraq ochadi va u orqali operatsiyalarni amalga oshiradi.

4.2. Yuridik shaxslar egasizlantirilgan metall hisobvarag‘ini faqat iBank tizimi orqali, ommaviy ofertani qabul qilish yo‘li bilan ochadilar.

4.3. Yuridik shaxslar uchun metall hisobvaraqlarning quyidagi ikki turi ochilishi mumkin:

- milliy valyutada (so‘mda) metall sotib olish uchun hisobvaraqlar; (XAUUZS, XAGUZS)
- xorijiy valyutada (AQSh dollarida) metall sotib olish uchun hisobvaraqlar. (XAUUSD, XAGUSD)

4.4. Mijoz bir vaqtning o‘zida bitta turdagi metall bo‘yicha yuqorida ko‘rsatilgan ikala turdagi hisobvaraqlarga ega bo‘lishi mumkin.

4.5. Agar hisobvaraq bo‘yicha operatsiyalar milliy valyutada (so‘mda) amalga oshirilishi belgilangan bo‘lsa (XAUUZS, XAGUZS), ushbu hisobvaraq bo’yicha barcha metal oldi-sotdi operatsiyalari hisob-kitobi so‘mda amalga oshiriladi;

4.6. Agar hisobvaraq bo‘yicha operatsiyalar xorijiy valyutada (AQSh dollarida) amalga oshirilishi belgilangan bo‘lsa (XAUUSD, XAGUSD), ushbu hisobvaraq bo’yicha metal sotib olish operatsiyasi hisob-kitobi AQSH dollarida, metal sotish operatsiyasi hisob-kitobi esa mijoz tanlovi asosida AQSH dollari yoki so’mda amalga oshiriladi;

4.7. So‘m yoki xorijiy valyutadagi hisobvaraqning mavjudligi egasizlantirilgan metall hisobvarag‘ida qimmatbaho metallarni sotib olish va sotish operatsiyalarini amalga oshirish uchun majburiy hisoblanadi.

4.8. Hisobvaraq mijozning tanloviga ko‘ra oltin yoki kumushda ochiladi. Mijoz tomonidan ochiladigan hisobvaraqlar soni cheklanmagan.

4.9. Hisobvaraq bo‘yicha qimmatbaho metallni sotib olish/sotish bitimlari faqat naqd pulsiz tartibda, mijoz hisob ochishda ko‘rsatgan qimmatbaho metall bo‘yicha amalga oshiriladi.

4.10. Hisobvaraq ochishda Mijoz Bankdan belgilangan minimal miqdordan kam bo‘lmagan egasizlantirilgan qimmatbaho metall sotib oladi.

4.11. Mijoz tomonidan Hisobvaraqga joylashtirilgan qimmatbaho metall O‘zbekiston Respublikasi “Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq kafolatlangan ob’ekt hisoblanmaydi.

4.12. Hisobvaraq qoldig‘iga foizlar hisoblanmaydi va to‘lanmaydi.

4.13. Mijoz Bankdan qimmatbaho metall sotib olib, uni o‘z Hisobvarag`iga kiritganida, ushbu qimmatbaho metall qiymati QQSga tortilmaydi.

3.5. Mijozning Hisobvarag`i bo‘yicha bitimlarni amalga oshirish uchun asos Mijoz tomonidan "Ibank" tizimi orqali tasdiqlangan shakllarga muvofiq tuzilgan bitimlar (keyingi o‘rinlarda – bitimlar) hisoblanadi.

4.14. Qimmatbaho metallning Mijoz hisobvarag`iga kiritilishi Mijozning hisobvaraqlarida mavjud bo‘lgan so`m yoki AQSh dollaridagi pul mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi. Bu mablag‘lar evaziga Mijoz tomonidan Bankdan tegishli miqdorda qimmatbaho metall sotib olinadi.

4.15. Bank Mijozning hisobvarag`iga uning Ibank tizimida o’tkazgan bitimida ko‘rsatilgan massa miqdorida qimmatbaho metallni kiritadi, bu miqdor Bank tomonidan belgilangan minimal miqdordan kam bo‘lmasligi kerak. Qimmatbaho metall Mijoz Ibank tizimida sotib olish operatsiyasini amalga oshirgan paytda kiritiladi.

3.6. Hisobvaraqda mavjud bo‘lgan qimmatbaho metallni sotishdan tushgan pul mablag‘lari Mijoz tomonidan sotish bo‘yicha bitimida belgilangan, Bankda ochilgan hisobvarag`iga bitim shartlari asosida O`zbekiston so`mi yoki AQSH dollarida kiritiladi.

4.16. Qimmatbaho metallni sotib olish/sotish bitimlari operatsiya amalga oshirilgan paytda amal qilayotgan Kotirovkalarga muvofiq amalga oshiriladi.

4.17. Mijoz Bankka qimmatbaho metall bilan operatsiyalar bo‘yicha topshiriq yuborishi mumkin bo‘lgan minimal hajm (massa) Bank tomonidan belgilanadi.

4.18. Mijoz tomonidan Hisobvaraqda mavjud bo‘lgan qimmatbaho metall Bankka sotilgan taqdirda, Bank soliq agenti sifatida tan olinmaydi. Qimmatbaho metallarni realizatsiya qilish operatsiyalari bo‘yicha yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hisoblash va to‘lash, shuningdek, yillik daromad deklaratsiyasini topshirish Mijoz tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan tartib va muddatlarda mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

4.19. Hisobvaraqning holati va undagi operatsiyalar to‘g‘risidagi ma'lumotlar "Ibank" tizimida aks ettiriladi.

5. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

5.1. **Bank majburiyatlari:**

5.1.1. Mijoz Bank tomonidan belgilangan minimal miqdordan kam bo‘lmagan qimmatbaho metall sotib olgan taqdirda, unga Hisobvaraq ochadi.

5.1.2. Hisobvaraq bo‘yicha operatsiyalarni qonunchilik va ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq belgilangan muddatlarda amalga oshirish.

5.1.3. Mijozga joriy operatsiya amalga oshirilayotgan paytda amalda bo‘lgan Kotirovka bo‘yicha egasizlantirilgan qimmatbaho metallni sotish va uni Mijozning Hisobvarag`iga kiritish.

5.1.4. Mijozdan joriy operatsiya amalga oshirilayotgan paytda amalda bo‘lgan Kotirovka bo‘yicha egasizlantirilgan qimmatbaho metallni sotib olish va tushgan pul mablag‘larini Mijozning Hisobvarag`iga kiritish.

5.1.5. Hisobvaraq qoldig‘i va undagi operatsiyalar bo‘yicha ma’lumotlarni Ibank tizimida o‘z vaqtida aks ettirish.

5.1.6. Shartnomani bajarish jarayonida maxfiylik rejimini ta’minlash, bundan O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan holatlar mustasno.

5.1.7. Ushbu Shartnomaning boshqa shartlarini tegishli darajada bajarish.

5.1.8. Shartnomaga va Bank Tariflariga kiritiladigan o‘zgarishlar haqida Mijozni ushbu o‘zgarishlar kuchga kirishidan kamida 10 (o‘n) kun oldin Shartnomaning 13.2-bandida ko‘rsatilgan usullar orqali xabardor qilish.

5.2. **Bankning huquqlari:**

5.2.1. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan holatlarda Hisobvaraq bo‘yicha operatsiyalarni vaqtincha to‘xtatish.

5.2.2. Shartnoma va Tariflarga o‘zgartirishlar kiritish, bunda Mijozni ushbu o‘zgarishlar to‘g‘risida Shartnomaning 13.2-bandida belgilangan tartibda oldindan xabardor qilish.

5.2.3. Minimal bitim hajmini belgilash, shuningdek, amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq bitimlar uchun miqdor va sifat bo`yicha cheklovlarni joriy etish.

5.2.4. Agar Mijozning hisobvarag`iga xatolik bilan qimmatbaho metall summasi kiritilgan bo‘lsa, Bank Mijozdan ushbu mablag‘ni qaytarishni talab qilishga haqli. Agar Mijoz ushbu talabni 1 (bir) ish kuni ichida bajarmasa, Bank ushbu mablag‘ni Mijozning Hisobidan akseptsiz tarzda hisobdan chiqarish huquqiga ega.

5.2.5. Shartnomada va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan holatlarda Shartnomani bekor qilish.

5.2.6. Shartnoma amal qilishi davomida Mijozni identifikatsiya qilish va uning ma’lumotlarini yangilash uchun zarur bo‘lgan hujjatlar va ma’lumotlarni talab qilish. Shuningdek, hisobvaraq bo‘yicha operatsiyalar va bitimlarning mazmuni va qonuniyligini tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilish.

5.2.7. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, Bank faoliyatiga tegishli bo‘lgan, jumladan jinoiy yo‘l bilan olingan daromadlarni legallashtirish va soliqqa tortish sohasidagi talablarni bajarish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar va ma’lumotlarni Mijozdan talab qilish. Ushbu ma’lumotlarni taqdim etmaslik yoki kechiktirib taqdim etish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan har qanday salbiy oqibatlar xavfi Mijoz zimmasida bo‘ladi.

5.2.8. Bank amaldagi qonunchilikka muvofiq, Mijoz tomonidan Bank faoliyatiga tegishli bo‘lgan qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ hujjatlari hamda davlat hokimiyati organlarining normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan talablarni bajarish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar va ma’lumotlar taqdim etilmagan taqdirda, Mijozning operatsiyalar bo‘yicha arizalarini bajarishdan bosh tortish huquqiga ega. Ushbu talablar, jumladan, jinoyat yo‘li bilan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish sohasiga ham tegishlidir.

5.2.9. Bank quyidagi hollarda Mijozning arizalarini qabul qilish va hisobvaraq bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirishdan bosh tortish huquqiga ega:

- Hisobvaraqda Qimmatbaho metall mavjud bo‘lmasa yoki yetarli bo‘lmasa;
- Hisobvaraqda, arizada ko‘rsatilgan summada, Bankka Qimmatbaho metall

qiymatini to‘lash, Tariflarda nazarda tutilgan komissiyalar va(yoki) Bank oldidagi boshqa qarzlarni qoplash uchun yetarli mablag‘ bo‘lmasa;

- Shartnoma va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

5.2.10. Buxgalteriya hisobi yuritish qoidalari hamda Shartnoma shartlari o‘zgargan taqdirda, Bank hisobvarag`ini bir tomonlama tartibda o‘zgartirish huquqiga ega. Bunda, Bank ushbu o‘zgarish haqida Mijozga “Ibank” tizimi orqali Hisobraqami o‘zgartirilishidan kamida 10 (o‘n) kalendar kun oldin tegishli xabarnoma yuborishi shart.

5.2.11. Shartnomaning amal qilish davrida Mijozning hisobvarag`iga ta’qiq solingan yoki hisobvaraqdagi operatsiyalar vaqtincha to‘xtatilgan holatlarda, hisobvaraq bo‘yicha Mijoz tomonidan berilgan topshiriqlari Bank tomonidan bajarilmaydi;

5.2.12. Qonuniy asoslarga ko‘ra, Mijozning hisobvaraqdagi operatsiyalarini vaqtincha to‘xtatish yoki rad etish.

5.2.13. Davlat organlarining ijro hujjatlari kelib tushgan taqdirda, Mijoz e’tiroz bildirishidan qat’i nazar, O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan tartibda tegishli choralarni (hisobvaraqdagi mablag‘larni xatlash, hisobvaraq bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatish va boshqalar) ko‘rish;

5.2.14. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq hisobvaraq bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatish yoki ularni amalga oshirishdan bosh tortish.

5.3. **Mijoz majburiyatlari:**

5.3.1. Bankka o‘zi haqida ishonchli ma’lumotlarni taqdim etish hamda ularning o‘zgarishi haqida o‘z vaqtida xabar berish.

5.3.2. Hisobvaraqni O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi va ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq ravishda boshqarish.

5.3.3. Bankning talabiga binoan, Shartnoma bandlarida ko‘rsatilgan hujjatlar va ma’lumotlarni darhol taqdim etish hamda ushbu hujjatlarda ko‘rsatilgan har qanday ma’lumotlar o‘zgargan taqdirda Bankni darhol xabardor qilish.

5.3.4. O‘z hisobidan soliq deklaratsiyasini topshirish va soliq qonunchiligida

belgilangan tartibda, qimmatbaho metallni realizatsiya qilishdan olgan daromadlar bo‘yicha daromadiga soliqni byudjetga to‘lash.

5.3.5. Agar Mijoz tomonidan Hisobvarag`ga noto‘g‘ri qimmatbaho metall kiritilishi aniqlansa, Mijoz darhol Bankni noto‘g‘ri kiritilgan qimmatbaho metall haqida xabardor qilishga majburdir.

5.3.6. Mijoz Bankka noto‘g‘ri kiritilgan qimmatbaho metallarni, ularni noto‘g‘ri kiritilganini aniqlaganidan keyin 1 (bir) ish kuni ichida qaytarishga majburdir. Agar ushbu holatni Bank aniqlagan bo‘lsa, Mijoz Bankdan tegishli yozma talabni olganidan keyin 1 (bir) ish kuni ichida qaytarishi lozim.

5.3.7. Ushbu Shartnomaning boshqa shartlarini to‘g‘ri va to‘liq bajarish.

5.4. **Mijozning huquqlari:**

5.4.1. Shartnoma shartlariga muvofiq ravishda Hisobvaraq bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish.

5.4.2. Hisobvaraqda Qimmatbaho metall mavjud bo‘lmasa, istalgan vaqtda Shartnomani bekor qilish va hisobvaraqni yopish bo‘yicha ariza imzolash.

6. Tomonlar javobgarligi.

6.1. Tomonlar, o‘z majburiyatlarini Shartnoma bo‘yicha noto‘g‘ri bajarganliklari uchun O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va Shartnoma shartlariga muvofiq javobgar bo‘ladi. Agar biror tomon Shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmasa yoki noto‘g‘ri bajarsa, bu tomon boshqa tomonga, ko‘rsatilgan noto‘g‘ri bajarish yoki bajarilmaslik bilan bog‘liq ravishda yuzaga kelgan zararlarni qoplashga majburdir.

6.2. Mijoz vakolatli shaxslar tarkibidagi o‘zgarishlar to‘g‘risida Bankni xabardor qilmagan yoki o‘z vaqtida xabardor qilmagan taqdirda, Bank vakolatlari bekor qilingan shaxslar tomonidan imzolangan topshiriqlarni bajarganligi uchun javobgar bo‘lmaydi.

6.3. Agar shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarish yoki noto‘g‘ri bajarish fors-major holatlari, ya’ni mavjud sharoitlarda oldini olish imkoni bo‘lmagan favqulodda holatlar tufayli yuzaga kelsa, tomonlar javobgarlikdan ozod qilinadi.

6.4. Fors-major holatlariga, masalan, quyidagilar kiradi:

- fuqarolik va harbiy to‘qnashuvlar, terrorchilik xurujlari, ish tashlashlar, tabiiy ofatlar, yong‘inlar, avariyalar, portlashlar, mexanik shikastlanishlar, kompyuter

tizimlaridagi uzilishlar, aloqa tizimlarining nosozligi, elektr energiyasi ta’minotidagi uzilishlar va shu kabi holatlar;

- shuningdek, qonunlar, qonunosti hujjatlari, sud qarorlari, moratoriylar, davlat organlarining boshqa harakatlari va qarorlari, Shartnomada belgilangan majburiyatlarni bajarishni imkonsiz qiladigan holatlar;

6.5. Fors-major holatlari yuzaga kelganini va davomiyligini tasdiqlovchi rasmiy hujjatlar tegishli organlar tomonidan taqdim etilishi kerak, bundan tashqari, agar bunday holatlar keng jamoatchilikka ma’lum bo‘lsa, tasdiqlash zarur emas.

6.6. Fors-major holati yuzaga kelganda, tomonlar uch ish kunigacha boshqa tomonni shartnoma bo‘yicha majburiyatlarini bajarishning imkonsizligi haqida yozma ravishda xabardor qilishlari lozim.

6.7. Hisobvaraq boshqaruvini amalga oshirishda mijoz o‘z hisobvarag`ida amalga oshirgan operatsiyalar bo‘yicha zararlarni yuzaga kelishi xatarini o‘z zimmasiga oladi, bu zararlar bozor narxlarining o‘zgarishi, valyuta kursining farqi yoki Bankga bog`liq bo‘lmagan boshqa salbiy holatlar natijasida yuzaga keladi. Bunday holatlar mijozning shartnomadagi majburiyatlarini bajarmaslikka yoki zararlarni qoplashni talab qilishga asos bo‘lmaydi.

7. Shartnomani bajarish jarayonida yuzaga keladigan xatarlar.

7.1. Mijoz quyidagi omillar bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy yo'qotishlar xavfini o'z zimmasiga oladi:

7.1.1 Bozor narxlarining o'zgarishi. Narx turli omillar, masalan, iqtisodiy holat, geosiyosiy voqealar va metallar bo'yicha talabga qarab o'zgarishi mumkin, bu esa yo'qotishlarga olib kelishi mumkin.

7.1.2 Iqtisodiy va siyosiy holatdagi o'zgarishlar, sanktsiyalar, global inqirozlar yoki jahon bozorlaridagi beqarorlik, qimmatbaho metallar narxiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va mijoz uchun yo'qotishlarga olib kelishi mumkin.

7.1.3 Regulyativ shartlarining o'zgarish xavfi: Qimmatbaho metallarni savdosi bilan bog'liq qonunchilik yoki huquqiy normalardagi o'zgarishlar bitimlarning shartlariga yoki ularning bajarilishiga ta'sir qilishi mumkin, bu esa mijoz uchun qo'shimcha xatarlarni yuzaga keltirishi mumkin.

7.1.4 Fors-major holatlari bilan duch kelish, masalan, tabiiy ofatlar, urushlar, epidemiyalar yoki boshqa favqulodda holatlar, ular bitimlarni bajarish imkoniyatiga yoki bozor shartlariga ta'sir qilishi mumkin.

7.1.5 Agar mijoz hozirgi bozor tendensiyalari va qimmatbaho metallar bo'yicha talab va taklifdagi o'zgarishlar haqida to'liq yoki dolzarb ma'lumotga ega bo'lmasa, bu bitimlarni amalga oshirishda noto'g'ri qarorlar qabul qilishga olib kelishi mumkin, va mijoz bunday qarorlar natijalari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

7.1.6 Bankga daxli bo'lmagan boshqa salbiy holatlar.

8. Bank tariflari

8.1. Shartnomaga binoan ko‘rsatilgan xizmatlar uchun mijoz Bankka to‘lovni Bankning tasdiqlangan tariflariga muvofiq to‘laydi, bu tariflar www.nbu.uz saytida joylashtiriladi.

8.2. Bankning tariflariga ko‘ra belgilangan komissiya to‘lovi mijoz tomonidan operatsiya amalga oshirilgan kuni O‘zbekiston so‘mlari yoki AQSh dollarlarida naqd pulsiz tarzda to‘lanadi.

9. Hisobvaraqni boshqarish cheklovlari

9.1. Bank tomonidan mijozning hisobvarag`idagi qimmatbaho metallarga bo‘lgan huquqlarini cheklash mumkin emas, faqat O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va/yoki Shartnoma tomonidan ko‘zda tutilgan holatlardan tashqari.

9.2. Agar qimmatbaho metallarni undirishga oid talablar yoki qimmatbaho metallarni musodara qilish haqida qarorlar mavjud bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda Bank ushbu talablar va qarorlarni amalga oshiradi.

10. Maxfiylik

10.1. Tomonlar, shartnoma tuzish va/yoki amalga oshirish jarayonida olingan va/yoki tomonlarga ma'lum bo'lgan ma'lumotlarni, amaldagi qonunchilikka muvofiq majburiy ma'lumot oshkor qilish holatlaridan tashqari, maxfiyligini saqlashga majburdirlar.

10.2. Ushbu Shartnomani tuzish orqali Mijoz o'zining shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga shu jumladan yig'ish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, o'zgartirish, foydalanish, uzatish, tarqatish, ko'paytirish, elektron nusxalarini olish, avtomatlashtirish vositalaridan foydalanmasdan va foydalanib quyidagi maqsadlar uchun roziligini bildirmoqda:

- O`zbekiston Respublikasi Bank siri to'g'risidagi qonuniga muvofiq shaxsga doir ma'lumotlarni taqdim etish;

- Mijozni bank xizmatlari va mahsulotlari haqida xabardor qilish;
- Moliyaviy xizmatlar bozorini tadqiq qilish;
- Bank faoliyatini avtomatlashtirish bo'yicha ishlarni amalga oshirish, shuningdek avtomatlashtirish vositalarini qo'llab-quvvatlash.

11. Nizolarni hal qilish

11.1. Shartnoma bo'yicha yuzaga kelgan nizolar, tomonlar tomonidan talabnoma tartibida hal qilinadi, shartnomada ko'rsatilgan shartlarga muvofiq Bank tomonidan hisobga xato kiritilgan qimmatbaho metallarni hamda Bankka to'lanishi kerak bo'lgan mukofot, xizmatlar uchun sarf-xarajatlarni undirish holatlaridan tashqari. Talabnoma olgan tomon, uni qabul qilgan sanadan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kuni ichida yozma javob berishi shart.

11.2. Agar talabnoma to'liq yoki qisman rad etilgan bo'lsa yoki belgilangan muddat ichida unga javob olinmasa, talabnoma bildirgan tomon qonunchilikka muvofiq sudga murojaat qilish huquqiga ega.

12. Korrupsiyaga qarshi shartlar

12.1. Taraflar ushbu Shartnomani tuzishda, Shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so‘ng, Shartnoma bilan bog‘liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oldilar.

12.2. Taraflar ushbu bo‘limdagi korrupsiyaga qarshi shartlarda belgilangan korrupsiyani oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo‘yicha hamkorlikni ta’minlaydilar.

12.3. Har bir taraf ushu Shartnoma tuzilgan paytda bevosita o‘zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog‘liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmagani, Shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo‘l qo‘yilmagani, taklif etilmagani, ularni berishga va’da qilinmagani, shuningdek, moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganini (kelajakda bu turdagi harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirilmaganini) kafolatlaydi.

12.4. Taraflar, ular tomonidan Shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslar) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko‘radi.

12.5. Taraflar o‘zlari, shuningdek, o‘zining ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan har qanday vaqt va shaklda quyidagi harakatlarni bevosita yoki

bilvosita (shu jumladan, uchinchi shaxslar orqali) sodir etilishiga, jumladan quyidagilarga yo‘l qo‘ymaydilar:

- nazorat qiluvchi organlardan litsenziya va ruxsatnomalar olish, soliq solish, bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish, sudda ish ko‘rilishi, qonunchilik jarayoni va boshqa sohalarda qonunga xilof ravishda tijorat yoki boshqa tusdagi ustunlikka ega bo‘lish yoki saqlab qolish maqsadida qayd etilgan shaxslar foydasiga yoki ular tomonidan moddiy yoki nomoddiy naf olishning taklif etilishi, va’da qilinishi, berilishiga;
- qonunga xilof ravishda olingan daromadlarning legallashtirilishiga, shuningdek, agar mulk jinoiy faoliyatdan olingan daromad ekanligi taraflarga ma’lum bo‘lsa, uni o‘tkazish, mulkka aylantirish yohud almashtirish yo‘li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, bunday pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyati, manbai, turgan joyini, tasarruf etish, ko‘chirish usulini, pul mablag‘lariga yoki boshqa mol-mulkka bo‘lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki uning kimga qarashliligini yashirishga.

13. Shartnoma muddati. Shartnomani o'zgartirish va bekor qilish tartibi

13.1. Shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va nomuayyan muddatga tuziladi.

13.2. Agar Bank Shartnomani va/ yoki Tariflarni o'zgartirmoqchi bo`lsa, Bank bu haqda Mijozni o'zgartirishlar kiritiladigan sanadan oldin 10 (o'n) kalendar kunidan kechiktirmasdan quyidagi usullar orqali xabardor qiladi:

- Bankning hududiy bo`linmalarida ushbu bandda ko'rsatilgan hujjatlarning yangi tahrirlarini axborot doskalarida joylashtirish;
- Bankning www.nbu.uz saytida ushbu bandda ko'rsatilgan hujjatlarning yangi tahrirlarini joylashtirish;
- SMS va/ yoki "Ibank" orqali tegishli xabarnomalarni yuborish.

13.3. Mijoz Shartnomaga va/ yoki Tariflarga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar bilan yuqorida ko'rsatilgan usullardan biri orqali tanishish huquqiga ega.

13.4. Agar Mijoz Shartnomaga va/ yoki Tariflarga kiritilayotgan o'zgartirishlar yoki qo'shimchalar bilan rozı bo`lmasa, Mijoz bunday o'zgartirishlar yoki qo'shimchalar kuchga kirishidan oldin Shartnomani bekor qilish huquqiga ega. Agar Bank Mijozdan Shartnomani bekor qilish haqidagi yozma xabarni o'zgartirishlar yoki qo'shimchalar kuchga kirishidan oldin olmasa, Bank bu holatni Mijozning Shartnoma va Tariflar

shartlariga rozi bo'lishi sifatida qabul qiladi. Shartnoma Bank Mijozga o'zgartirishlar va/ yoki qo'shimchalar haqida xabar qilingandan so'ng 30 (o`ttiz) kalendar kunidan keyin o'zgartirilgan hisoblanadi, va agar shu muddat davomida Bank Mijozdan Shartnomani bekor qilish bo'yicha yozma ariza olmagan bo'lsa. Shu bilan birga, Shartnomaga o'zgartirish kiritish bo'yicha yozma kelishuv shakli O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 384-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi.

13.5. Shartnomaga yoki Tariflarga kiritilgan har qanday o'zgartirishlar va qo'shimchalar, ular kuchga kirganidan boshlab, ushbu Shartnomada ko'rsatilgan tartiblarga rioya qilgan holda, Bank bilan Shartnoma tuzgan barcha shaxslar uchun amal qiladi, jumladan o'zgartirishlar kuchga kirishidan oldin Shartnoma tuzganlar uchun ham. Shartnomaga yoki Tariflarga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar kuchga kirganidan keyin, barcha operatsiyalar, ular hisobvaraqda aks ettirilganidan boshlab, mazkur o'zgartirishlar va qo'shimchalar amalda bo'ladi.

13.6. Bank shartnoma va/ yoki tariflarga kiritiladigan o'zgarishlar va/ yoki qo'shimchalar haqida oldindan ma'lumotni tegishli ravishda oshkor qilgan bo'lsa, mijozning xabardor bo'lmaganligi tufayli yuzaga kelgan zararlar uchun javobgar emas.

13.7. Shartnomaning bekor qilinishi Mijozni Bankka hisob-kitoblarni amalga oshirish majburiyatidan ozod etmaydi.

13.8. Bank ikki yil davomida Mijozning hisobvarag`ida Qimmatbaho metallarning mavjud bo'lmasligi va hisobvaraqda operatsiyalar amalga oshirilmasligi holatida, Mijozni yozma ravishda ogohlantirgan holda, shartnomani bir tomonlama (suddan tashqari) bekor qilish huquqiga ega. Agar Mijozning hisobvarag`iga ushbu muddat davomida Qimmatbaho metallar kelib tushmasa, shartnoma Bankning ogohlantiruvini yuborgan kundan boshlab bir (1) oy o'tgach bekor qilingan hisoblanadi.

13.9. Bank, agar hisobvaraqlar jinoiy faoliyatidan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida foydalanish ehtimoliga ega bo`lsa, Mijozni yozma ravishda ogohlantirib, shartnomani bir tomonlama (suddan tashqari) bekor qilish huquqiga ega. Bunday holatda, shartnoma Bankning ogohlantiruvini yuborgan kundan boshlab uch (3) kalendar kuni ichida bekor qilingan hisoblanadi.

13.10. Shartnoma bilan tartibga solinmagan Bank va Mijoz o‘rtasidagi boshqa barcha munosabatlar O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi asosida amalga oshiriladi.

14. Yuridik manzillar, bank rekvizitlari.

«O`zmilliybank» AJ
Manzil: O`zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, 100047, A.Temur ko`chasi, 101
Rekvizitlar: h/r 10301000600000450001 Toshkent shahar O'zR Markaziy bankining KHM
MFO: 00450
INN: 200836354
Tel: 1344, +99878 148-00-10
Ishonch raqami: +99878 147-15-04
Bank sayti: www.nbu.uz
El.pochta: info@nbu.uz